6.994
2024 Impact Factor

PEDAGOG

RESPUBLIKA ILMIY JURNALI

The journal "Pedagog" covers the sphere of spiritual and educational thinking of a person, the socio-political life of a person, institutions of civil society, global problems, problems of education, new technologies produced today, reforming the education system and publishes scientific articles on open scientific popular analysis.
The journal is intended for students, masters, professional scientists and researchers, university professors. The publication publishes articles of a problematic and scientific-practical nature.

Volume 7, Issue 2



Exact
Natural
Medical
Technical
Economics
Philological
Pedagogical
Social sciences
and humanities

7 – TOM 2 – SON / 2024 - YIL / 15 - FEVRAL



«BEST PUBLICATION»

Ilmiy-tadqiqotlar markazi ©

“PEDAGOG”
RESPUBLIKA ILMIY JURNALI

MATERIALLARI TO‘PLAMI

15-FEVRAL, 2024-YIL

7-TOM 2-SON

O‘ZBEKISTON
2024

83.	**Mamatkulova Bakhtijon Ravshanovna** *TURLI TIZIMLI TILLARDA ONOMASTIK LEKSIKANING XUSUSIYATLARI*	**459**
84.	**Kadirova X.A.** *JADIDCHILIK NOMOYONDASI SHOKIR SULAYMONNING PEDAGOGIK QARASHLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH*	**464**
85.	**Kadirova X.A.** *JADIDCHILIK NOMOYONDASI ISHAQON IBRATNING PEDAGOGIK QARASHLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH*	**473**
86.	**Raxmanova M. Q. Nishonov D. R. Mardonov J. Sh. Begmatov N. J.** *OILADA SOG'LOM IJTIMOIY PSIXOLOGIK IQLIMNI YARATISHDA BOLAGA TA'SIR ETUVCHI ENG MUHIM OMILLARNING O'ZIGA XOSLIGI*	**484**
87.	**Dilrabo Khasanovna Saydaxmetova** *METHODS OF INDEPENDENT WORK ON THE FORMATION OF STUDENTS' COGNITIVE COMPETENCE THROUGH LITERARY AND THEORETICAL CONCEPTS*	**489**
88.	**Муратов Баходир** *МЕТОДЫ И ПРИЕМЫ ОБУЧЕНИЯ КОММУНИКАТИВНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В СТАРШИХ КЛАССАХ СРЕДНЕЙ ШКОЛЫ.*	**495**
89.	**Omon Suvanov** *FARZAND TARBIYASIDA OILAVIY QADRIYATLARNING AHAMIYATI*	**501**
90.	**Xakimova Diyoraxon Maxammadjon qizi** *VOLEYBOL BO'YICHA O'QITUVCHI – MUTAHASSIS MODELI*	**505**
91.	**Jo'rayeva Moxinur Najmiddin qizi** *YOSHLIK VA KEKSALIKNING TURLI JAMIYATDA TASVIRLANISHI*	**510**
92.	**Rayimqulova Muxlisa** *ECONOMIC EFFICIENCY OF THESE CHEAP FUEL RESOURCES IN THE PRODUCTION OF ELECTRICITY AND THERMAL ENERGY*	**515**
93.	**Ya.A. Nurumbekova, Saidova Sevara Istam qizi** *O`QUVCHILARNING ILMIY DUNYOQARASHINI SHAKLLANTIRISH.AQLIY TARBIYA*	**518**
94.	**Ya.A. Nurumbekova, Yaxshilikova Sevinch Faxriddin qizi** *BUGUNGI KUNDA INKLYUZIV TA`LIMNING DOLZARBLIGI*	**521**
95.	**Раупова М. Х, Урманов Шингис Майханович** *ИЗМЕНЕНИЯ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ПРОЦЕССА В СОВРЕМЕННОЙ ШКОЛЕ: ВЫЗОВЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ*	**524**
96.	**Raupova M. H., Xasanova M. F., Qurbonqulova S. B.** *PYTHON DASTURLASH TILINING SYMPY VA SCIPY KUTUBXONALARIDAN FOYDALANGAN HOLDA INTEGRALGA DOIR MASALALARNI HAL QILISH*	**532**
97.	**Mavlonova G.D.** *TAKRORIY EKIN SIFATIDA EKILGAN SOYANING GENETIK KOLLEKSIYASI NAMUNALARINING MORFOLOGIK BELGILARI*	**538**
98.	**O.U.Nurova** *KRAXMALNI MODIFIKATSIYALASHNING MEXANO-KIMYOVIY TEXNOLOGIYASI*	**547**
99.	**Qayumova Hulkar Sayfiddinovna** *BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIKA O'QITISH XUSUSIYATLARI*	**554**
100.	**Mohinur Azimqulova, Xayrulla Hamidov** *INSON KAMOLOTI VA XALQPARVARLIK G'OYALARI OGAHIY NIGOHIDA*	**561**
101.	**Egamberdiyeva D.O., Mahkamova M.U.** *INFORMATIKA FANINI O'QITISHDA INNOVATSION USLUBLARNI ISHLAB CHIQISH VA ULARNI DARS JARAYONIGA TADBIQ ETISH*	**565**
102.	**Umida Fayzullaeva** **Dildora Toshpulatova** *NEW INFORMATION TECHNOLOGIES IN TEACHING ENGLISH SPEAKING SKILLS FOR PUPILS*	**577**
103.	**Sayyara Rustamovna Abdalova** *ZAMONAVIY PEDAGOGIKADA TA'LIM JARAYONINI NAZORAT QILISH VA KUZATISH METODIDAN FOYDALANISH*	**581**

7 – TOM 2 – SON / 2024 - YIL / 15 - FEVRAL

ZAMONAVIY PEDAGOGIKADA TA'LIM JARAYONINI NAZORAT QILISH VA KUZATISH METODIDAN FOYDALANISH

Sayyara Rustamovna Abdalova
Chirchiq davlat pedagogika universiteti dotsenti

Annotatsiya: *Ta'lim jarayoni boshqaruvida nazorat qilish, kuzatish hamda tahlil qilish katta ahamiyatga ega. Ta'lim sifatini ta'minlashda, uni talablar darajasida tashkil etishda tahlil qilishning zamonaviy usullarini qo'llash va ularni takomillashtirish bilan belgilanadi.Tadqiqodchining nazariyasiga binoan, kuzatish va tahlil etishning zamonaviy tomonlari ochib berilgan. Kuzatish jarayonni baholashning eng asosiy metodi sanaladi.*

Kalit so'zlar: *ochiq mashg'ulot, ta'lim jarayoni, nazorat, tahlil qilish, kuzatish, takomillashtirish, zamonaviy usullar.*

Zamonaviy pedagogika-muayyan davlat konstitutsiyasi, ta'lim to'g'risidagi qonunlar hamda rivojlanish dasturlari, jamiyat taraqqiyotining umumiy qonunlari, xalqning milliy-ma'rifiy merosi va ta'lim tarbiya sohasida erishilgan jahon miqyosidagi yutuqlar asosida shakllangan hamda millatning muayyan tarixiy rivojlanish jarayonidagi talablariga javob beruvchi ta'lim-tarbiya nazariyasi, usul va uslublarni ifodalovchi ilm-fan majmuidir. Zamonaviy pedagogikada ta'lim-tarbiya jarayoni sifatini ta'minlash va jahon andozalari darajasiga ko'tarishda nazorat qilishning metod va usullarini ham integratsiyalashni talab etadi.

Ta'lim jarayoni nazoratini olib borishda nazorat qilishning tahlil usuli olib boriladi.Tahlilni tashkil etishda eng asosiy metod bu kuzatish metodidir. Pedagogika ilmida kuzatish metodidan keng qollqniladi. Kuzatish metodi juda qadimgi metodlardan biri bo'lib, bu metod ancha murakkabligi bilan ham ahamiyatlidir. Ta'limda belgilangan maqsadning qanday amalga oshirilganligini aniqlash, faoliyatga to'g'ri baho berish maqsadida ham foydalaniladi. Kuzatish orqali ma'lumotlarni to'pash mumkin.[6]

Kuzatish metodi ma'lum bir pedagogik hodisani, biror maqsadni ko'zlab, muntazam o'rganish, ta'lim-tarbiya jarayonining turli sharoitlarida uning rivojlanishi va o'zgarishini kuzatib borishdir.Ta'lim jarayonida ta'lim oluvchi ya'niy bolalarni xatti-harakatlari kuzatilib, bilim olish bo'yicha qiziqishlari, ko'nikmalar darajasi, rivojlanishdagi ijobiy o'zgarishlar aniqlanadi.[5] Bolalar faoliyatini kuzatish unga aralashmagan holda amalga oshirilishi zarur. Pedagogik jarayonni nazoratini olib borishda tahlil qiluvchi shaxs kuzatishni shunday tashkil etishi kerakki, kuzatuv chog'ida hech bir "moment" nazardan chetda qolmasligi, kuzatilayotgan jarayonga kasbiy bilimdonlik bilan holis baho berilishi va o'z vaqtida tegishli fikrlar bilan qayd etib borilishi zarur. Kuzatishlarni tashkil etishdan ko'zlangan maqsad ham kuzatilayotgan ob'ekt haqidagi ma'lumotlarni to'plash, uning ahamiyatli tomonlarini

ajratib olishdan iboratdir. Kuzatish metodini takomillashtirish uchun uning mazmun va mohiyatini tushunib olishimiz zarur.

O‘zbek tilining izohli lug‘atida kuzatishga quyidagicha ta’riflar berilgan: “kuzatish”-tekshirish, bilishga qaratilgan ish, harakat; “kuzatish”-bilish, aniqlash maqsadida sinchiklab qaramoq, ko‘zdan kechirmoq deb tarif berilgan.[8] Psixologik tomondan qaralganda kuzatish tadqiq qilishning vazifalaridan kelib chiqib, kuzatish maxsus tashkil etilgan idrok jarayonidir. Pedagogik tomondan qaralganda esa kuzatish orqali amaldagi ta’limiy jarayon bilan tanishish, uning oqibat natijalarini bilishga yordam beradi.Ta’lim jarayonida yaratilgan ilg‘or tajribalar, yangi kashfiyotlar uchun dalillar, omillar yig‘ish imkonini beradi.

Kuzatishni tashkil etish uchun quyidagi talablarga amal qilish talab etiladi:[4]

1.Kuzatishni tashkil etishda maqsadni aniqlash.

1.Kuzatishni tashkil etish uchun kuzatishning rejasini belgilab olish.

2.Kuzatishni boshlash uchun kuzatish ob’ektini tanlash.

3.Kuzatish muntazam tashkil etilishi kerak.

4.Kuzatish vaqtidagi natijalarni tez qayd etib borilishi zarur.

Kuzatish belgilangan maqsadga ko‘ra tashkil etiladi.Ta’lim jarayonini kuzatishlar boshqaruv funksiyasiga ko‘ra yuqori boshqaruv organlari tomonidan, metodik birlashmalar tomonidan, tashkilot rahbari, metodisti tomonidan amalga oshiriladi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida pedagogik jarayonni jamoa bo‘lib kuzatish ham amalga oshiriladi. Jamoa bolib kuzatish har bir guruhda bir o‘quv yilida bir marta rejalashtiriladi. Bunga guruh markazlaridagi bolalar faoliyati va umumiy guruh bo‘lib ishlashlarini tashkil etilishi ham kuzatiladi. Jamoa bolib kuzatishda faqat guruh tarbiyachilari faoliyati kuzatilibgina qolmay, tashkilotdagi boshqa pedagoglar defektolog, psixolog, logoped, musiqa rahbari, jismoniy tarbiya yo‘riqchisi va til o‘qituvchilarining faoliyatlarini ham kuzatish rejalashtiriladi. Reja belgilashda faoliyatiga bir yil to‘lmagan pedagoglar faoliyatini kuzatish rejaga kiritilmaydi.

Ta’lim jarayoni tahlilida tashkiliy, didaktik, metodik, psixologik tahlillar tashkil etiladi. Nazoratchi –kuzatuvchi o‘z oldiga qaysi kuzatish turini rejalashtirganligiga ko‘ra, kuzatish madsadlarini belgilaydi. Agarda kuzatuvchi o‘z oldiga ta’lim faoliyatini tashkiliy tahlilini amalga oshirishni maqsad qilib qo‘ygan bo‘lsa, unda tarbiyachining mashg‘ulotga tayyorgarligi, tarbiyalanuvchilarning kayfiyati, guruh xonasining tozaligi, mashg‘ulot uchun kerakli didaktik vositalarning tayyorlanganligi, texnik vositalarning shay holati, tarbiyachining tashqi qiyofasi, kiyinish madaniyati kabilarga e’tibor qaratiladi. Didaktik tahlilini amalga oshirish chog‘ida ta’limiy faoliyatning tarbiyachi tomonidan didaktikaning ta’lim prinsplariga ko‘ra tashkil etilganligi, ta’lim jarayonida tizimlilik, izchillik va oddiydan murakkab tomon yonalganligi kabilar kuzatiladi.

Kuzatish uchun metodik tahlil maqsad qilib olingan bo‘lsa, bunda tarbiyachi tomonidan o‘tilayotgan mavzuning dasturga mosligi, tarbiyachi tomonidan qanday

metod, usul va vositalardan foydalanganligi, mavzuni tushuntirishda tarbiyalanuvchilarning yoshi, gender imkoniyatlari, individual xususiyatlarini hisobga olgan holda olib borganligiga e'tibor qaratilishi lozim.

Ta'lim jarayonini kuzatish belgilangan rejaga ko'ra, uzluksiz yoki turli faoliyatlarni tanlab, vaqti-vaqti bila o'tkazilishi mumkin. Kuzarish amalga oshirilganda kuzatishni rasmiylashtirish, fikrlarni yozib olish daftari, tahlilni qayd etib borish varag'ini to'ldirish, bayonnomani yozishni, masala yuzasidan qaror qabul qilish kabi ishlar ham amalga oshiriladi. Ta'limiy faoliyat chog'ida tahlilni talab darajasida amalga oshirish uchun kuzatishni mukammal tarzda tashkil etishda faoliyat jarayonini video tasmalariga yozib olib, keyin kuzatish ham mumkin. [7]

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim jarayonini odatiy tabiiy usulda va innovatsion vositalar ko'magida kuzatish mumkin. Odatda tabiiy sharoitda kuzatish usulidan keng foydalaniladi.Uning afzalligi voqiylikni yaqqol ko'rish imkonini beradi. Lekin ta'lim jarayoni ishtirokchilari tarbiyachi va tarbiyalanuvchilar psixik holatlarini inobatga olgan holda kuzatishning tabiiy usulidan ko'ra innovatsion vositalar (video kuzatuv kameralari) orqali kuzatish maqsadga muvofiqdir. Uning asosi yosh guruhlariga tashrif buyurmagan holda rahbar xonasidagi kuzatish kameralarining ovozli rejimida kuzatishdir. Lekin har ikkala kuzatishlarni ham oz kamchiliklari mavjud. Tabiiy kuzatish jarayonni yaqqol ko'rish imkonini beradi, lekin tarbiyachi va tarbiyalanuvchilar ozlarini to'la namoyon qila olmaydilar. Video kuzatuvlar esa, jarayonni faqat bir nuqtadan kuzatishga majbur quladi. Shuning uchun, agarda ta'limiy faoliyat jarayoni video kuzatuvida tashkil etilsa, unga guruh xonasiga ikki tomonlama video kuzatuv ornatilishi jarayonni tola korinishda kuzatish imkonini beradi. Bundan tashqari, ayrim holatlarni qayta ko'rib, tahlil qilish ham mumkin. Tabiiy kuzatishda esa buning imkoni bo'lmaydi.

Xulosa qilib aytganda, kuzatishlar qanday mazmunda tashkil etilishidan kozlangan maqsad, ularni talablar darajasida tashkil etish, ta'lim jarayoni ishtirokchilari bo'lgan tarbiyachi va tarbiyalanuvchilar faoliyatini tahlil etish va baholashning eng samarali va qimmatli shalidir. Kuzatishni amalga oshirmasdan keng ma'lumotlarni to'plash mushkuldir. Shuning uchun, boshqaruv funksiyasida kuzatish o'z o'rniga ega.

Bugungi kunda ta'lim muassasalarining zamonaviy faoliyat jarayonini takomillashtirish va faoliyat jarayonida qator qulayliklarga ega bo'lish raqamli texnologiyalar rivojlanib borayotgan davrning o'ziga xosligidir. Shu boisdan ham o'quv jarayonida nazorat uchun faol elektron tizimning mavjudligi bu jarayonda qulaylik yaratadi.

Ma'lumki, ta'lim insoniyat taraqqiyotining ajralmas qismidir. Insoniyat tomonidan to'plangan tajriba avloddan-avlodga o'tadi, qayta ishlanadi va boyitiladi. Insoniyat taraqqiyoti bilan ta'lim vositalari ham rivojlanadi. So'nggi yillarda kompyuter texnologiyalarining, axborot kommunikatsiya vositalarining rivojlanishi

tufayli o‘quv jarayoni juda ko‘p o‘zgarishlarga uchradi. Shunday o‘zgarishlar sirasi sifatida so‘nggi yillarda yaratilgan elektron nazorat tizimlarini alohida ta’kidlash joizdir. Bunday elektron shakldagi nazorat tizimlarini baralla innovatsion texnologiyalarning bir bo‘ladi deya olamiz. Quyida Innovatsion texnologiyalarning bir bo‘lagi sifatida HEMIS dasturi haqida mulohaza yuritamiz.

Zamonaviy jamiyatimiz tobora taraqqiyot pillapoyasidan ko’tarilib borar ekan, ta’lim sohasiga bo‘lgan e’tibori ham shunchalik yuqorilab bormoqda. Negaki, ta’lim jamiyatning rivojida eng katta hissador yo‘nalishdir. Shu sababli ham ta’lim tizimida, aynan o‘quv jarayonlarida tezkor va qulaylik imkoniyatlariga ega tizimlarning yaratilishi bugungi davrning o‘ziga xosligidir.

Bunday o‘ziga xoslikni yaqqol aks etgan va ayni kunlarda ta’lim sohasida faol qo‘llanib kelinayotgan HEMIS dasturi yuqorida ta’kidlangan qulaylik va imkoniyatlarni o‘zida jamlay olgani bois bugungi ta’lim tizimida o‘zining o‘rnini topa oldi.

Oliy ta’limni boshqarish yo‘nalishida oliygohlar axborot tizimining HEMIS dasturi ayni vaqtlarda faollashib ulgurdi. Oliy ta’lim jarayonlarini boshqarish axborot tizimi, ya’niki HEMIS — bu axborot tizimi “Ma’muriy boshqaruv”,“ O‘quv jarayoni”, “Ilmiy faoliyat ”hamda “Moliyaviy boshqaruv ”axborot tizimlarini o‘zida jam qiladi. HEMIS axborot tizimi oliy ta’lim muassasalarining asosiy faoliyatlarini avtomatlashtirish hisobiga ma’muriy xodimlar, professor-o‘qituvchilar va talabalarga elektron ta’lim xizmatlarini taqdim etadi. Axborot tizimi oliy ta’lim muassasalari bilan Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi o‘rtasida axborot ko‘prigi vazifasini o‘taydi hamda oliy ta’lim muassasalaridan olinadigan turli xil ma’lumotlar sonini keskin kamaytirish, ularning qog‘oz shaklidan voz kechish va boshqaruv tizimini raqamlashtirishga xizmat qiladi.

Aynan o‘quv jarayoni bilan bog‘liq holatlarga bag‘ishlangan ishning mazmunini yoritish uchun dasturning “O‘quv jarayoni ”axborot tizimi haqida ma’lumot berish va ushbu ma’lumolarning ta’limdagi o‘quv jaryonida mavjud bo‘ladigan ahamiyati haqida so‘z yuritish o‘rinli bo‘ladi. HEMIS dasturining “O‘quv jarayoni ”axborot tizimi o‘quv dasturlari va rejalari, o‘quv mashg‘ulotlari va imtihonlar jadvallari, talabalarning o‘zlashtirish va davomatiga oid axborotlarni boshqarish kabi amaliy ishlarga qartilgan bo‘lib, bu orqali o‘quv jarayonida qator qulayliklarga erishish mumkin. Masalan, eng avvalo, qog‘ozbozlik ishlaridan voz kechib, masofaviy ta’limning rivojlanish bosqichlariga xos shartlarini o‘rganish va unga moslashib, faoliyat yuritish imkoniyati tug‘iladi. Bu bilan esa raqamli texnologiyalardan barcha birdek foydalnish imkoniyatini tezkorlik bilan o‘rganishi va uni amaliyotda tezda qo‘llay boshlashi mumkin. Shuning barobarida o‘quv mashg‘ulotlariga tegishli barcha ma’lumotlarning tizimda aks etishi ta’lim oluvchilarga ham ta’lim bervchilarga ham vaqtdan unumli foydalanish natijasida vaqtni tejash uchun yordam beradi. Ya’ni tizimda o‘quv mashg‘ulotlariga tegishli ma’lumotlarning joylashishi talaba tezkorlik bilan amaliy vazifalarni bajarish uchun namoyon bo’ladi. O‘qituvchi esa har bir talabaga bu haqida so‘zma-so‘z tushuntirishga

majbur bo'lmaydi. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, o'quv mashg'ulotlarining HEMIS dasturida aks etgani har tomonlaman qulaylikdir.

Imtixon jadvallarining dastur tizimida namoyon bo'lishi tezkorlik bilan talabalar jamoasini har qanday vaqt va vaziyatda ogoh etish imkonini beradi. Bu orqali talabalar imtixon sanasiga tayyorgarlikni qilib, vaqtida yetib kelishi va ishtirok etishi natijasida hech qanday muammo kelib chiqmaydi. Turli hududda bo'lganida ham talabalarning o'zlashtirish natijalari va dars mashg'ulotlaridagi ishtirokidan darak beradigan davomatdan ota-onalar yoki mas'ul shaxslar bu dasturdagi qulaylik sabab ma'lumotga ega bo'lib turadilar. Shunday qilib, xulosa o'rnida aytish mumkinki, HEMIS dasturi zamonaviy innovatsion texnologiyalarning eng maqbul namunalaridan biri sifatida o'quv jarayonida davrga xos vazifalarni ado etishda katta ko'mak beradi. Bu bilan yuqoridagi kabi qulayliklarga erishilib, vaqt tejalishi, imkoniyatlar kengayishi va yana bir necha qulayliklarga ega bo'lish kabi sifatlarga erishish mumkin.

ADABIYOTLAR:

1. Абдалова, С. А. С., & Собитова, Д. Р. (2023). ТАЪЛИМ ТЕХНОЛОГИЯЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ ПЕДАГОГИК ЗАРУРИЯТИ: ТАЪЛИМ ТЕХНОЛОГИЯЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ ПЕДАГОГИК ЗАРУРИЯТИ.

2. Абдалова, С. Р. ДАРСНИНГ ЎҚУВ ЖАРАЁНИДАГИ ЎРНИНИ ЎРГАНИШ ҲАМДА МУАММОЛИ ЎҚИТИШ ТЕХНОЛОГИЯСИ НУҚТАИ-НАЗАРИДАН ТАҲЛИЛ ҚИЛИШ. МУ АЛЛИМ ŒўМ ЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИ², 168.

3. Abduraximovna, A. S., & Rustamovna, A. S. (2022). MAKTABGACHA TALIMDA SAMARADORLIGINI TA'MINLASHDA RAHBAR BOSHQARUV KOMPETENSIYALARINING AHAMIYATI. World scientific research journal, 10(1), 168-172.

4. Rustamovna, A. S., & Abduraximovna, A. S. (2022). MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI RAHBARLARINI BOSHQARUV KOMPETENTSIYALARINI RIVOJLANTIRISHGA INNOVATSION YONDASHUV. Journal of new century innovations, 16(1), 64-68.

5. Rustamovna, A. S., & Baxromovna, A. M. (2022). OTMDA BO'LAJAK O'QITUVCHILAR O'ZINI-O'ZI RIVOJLANTIRISH KOMPTENSIYASINI SHAKLLANTIRISH. Journal of new century innovations, 16(1), 13-15.

6. Rustamovna, A. S., & Miyatovna, A. M. (2022). KLASTER ASOSIDA OILAVIY MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA INNOVATSION TA'LIM TARBIYA JARAYONINI TASHKIL ETISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA. World scientific research journal, 9(1), 92-97.

7. Rustamovna, A. S., & Baxromovna, A. M. (2022). BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING BILIM VA KO'NIKMALARINI INTEGRATSION SHAROIT ASOSIDA OSHIRISH. World scientific research journal, 9(1), 88-91.

8. Абдалова, С. Р. (2022). ТАЪЛИМ ТЕХНОЛОГИЯЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ ВА АҲАМИЯТИ. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 1(9), 197-200.

9. Абдалова, С. Р. (2022). ТАЪЛИМ ОЛУВЧИЛАРНИ ЕТАКЧИЛИК ҚОБИЛИЯТЛАРИНИ АНИҚЛАШ ВА ТАШХИСЛАШ. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 1(9), 193-196.

10. Rustamovna, A. S., & Sattarovich, Q. S. (2022). QUALITY OF EDUCATION IS A GUARANTEE OF OUR FUTURE ACHIEVEMENTS. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(5), 123-128.

11. Allahverdieva, K. V., Kakhramanov, N. T., Arzumanova, N. B., & Abdalova, S. R. (2022). Thermal Strain Properties of Metal-Polymer Composites Based on Low-Density Polyethylene and Copper. Inorganic Materials: Applied Research, 13(1), 116-120.

12. Қораев, С. Б., & Абдалова, С. Р. (2022). ЎҚУВ ЖАРАЁНИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ, ЛОЙИҲАЛАШ ВА МОДЕЛЛАШТИРИШ БОРАСИДАГИ МУАММОЛАР ВА УЛАРНИ БАРТАРАФ ЭТИШ ЙЎЛЛАРИ. Academic research in educational sciences, 3(1), 1116-1123.

13. Abdalova, S. R., & Kuchkarov, S. S. (2022). FANLARNI O ‘QITISHDA TA’LIM TEXNOLOGIYALARINING O ‘RNI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(2), 53-61.

14. Дусназаров, М. И., & Жумаева, Ш. Ч. (2020). Теоретические основы понятия семейного воспитания с позиций становления и развития культурной традиции. Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук, (1), 151-154.

15. Dusnazarova, M. I. (2022). Customs and Ceremonies of the Residents of the Surkhan Oasis Related to Marriage. International Journal on Integrated Education, 5(10), 103-107.

16. Dusnazarova, M. I. (2022). Legal Regulation of Marriage-Wedding Traditions in Modern Uzbekistan. Modern Journal of Social Sciences and Humanities, 1(11), 23-29.

17. Elamanovna, D. M. (2021, March). Works and environmental education. Archive of Conferences, 17(1), 79-80.

18. Astanova, G. A. (2020). A masterpiece of Arabian tales and world literature. Theoretical & Applied Science, (3), 352-356.

19. Ibragimovna, T. G., Aminovna, A. G., Kadirovna, R. N., & Yusupovna, K. M. (2019). Artistic Expressions of a Situational Pragmatic System. International Journal of Recent Technology and Engineering, 8(3), 4591-4593.

20. Astanova, G. A. (2020). Historical truth in the images of women in shakhrizad stories. Scientific reports of Bukhara State University, 4(1), 204-207.

21. Aminovna, A. G., & Ozjan, A. O. (2023). Hindi spirit in the tales of one thousand nights. Journal of education, ethics and value, 2(4), 47-49.